Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining

2022 yildagi faoliyati to‘g‘risida

MA’LUMOT

- Tashkiliy–huquqiy asoslarni takomillashtirish sohasida

Agentlik tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda korrupsiya omillarini bartaraf etishga qaratilgan 13 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi va tegishli tartibda qabul qilindi.

2 ta O‘zbekiston Respublikasi qonuni

- “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ–786-son Qonun (2022 yil 3 avgust);

Qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 2157-modda bilan to‘ldirilib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilandi.

1. 2.“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ–788-son Qonun (2022 yil 8 avgust)

Unda: *Davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, majburiyatlari, cheklovlar hamda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilandi.*

3 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni

- “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 101-son farmon (2022 yil 9 aprel);

- ***Unda:*** *2022 yil 1 maydan boshlab Davlat ishtirokidagi korxonalarda kuzatuv kengashi a’zolaridan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi tashkil etildi. Ijro organi rahbari sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo‘lishi mumkin emasligi talabi belgilandi.*
- *“Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 122-son farmon (2022 yil 27 aprel);*

Unda: *Bojxona organlarida xalqaro standartlarga muvofiq komplayens nazorat tizimini to‘laqonli ishga tushirish, kadrlarni ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida tanlash hamda tanlov jarayonlarining natijalari Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida e’lon qilib borilishini ta’minlash hamda bojxona organlari xodimlarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.*

- “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-son farmon (2022 yil 14 iyun).

Unda: *Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etildi.*

2 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 81-son qaror (2022 yil 12 yanvar);

Unda: *Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etildi.*

- “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 240-son qaror (2022 yil 11 may);

Unda: *Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsion xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha «E-Antikorrupsiya» loyihasi ishga tushirildi.*

3 ta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori

- “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qaror (2022 yil 20 may);

Unda: *Davlat xaridlarini elektron shaklda o‘tkazish shartlari, benefitsiar mulkdor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi hamda davlat xaridlari to‘g‘risidagi Shartnomalarning yagona reyestrini yuritish qoidalari belgilandi.*

- “2022 yilda normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 140-son qaror (2022 yil 26 mart);

Unda: *2022 yilda ijtimoiy ta’minot, moliya, kredit, bank va tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona sohalaridagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish reja jadvallari tasdiqlandi.*

- “Davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 734-son qaror (2022 yil 31 dekabr).

Unda: *Davlat xaridlari elektron tizimi operatori faoliyatini amalga oshirishning asosiy talablari belgilandi. Misil uchun, elektron tizim operatorlari elektron tijorat va axborot texnologiyalari sohasida kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan kamida ikki nafar malakali xodim hamda Call-markaz mavjud bo‘lishi lozim.*

3 ta Idoraviy normativ-huquqiy hujjat

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining

41-son buyrug‘i (3368-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) (2022 yil 13 may);

- “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligining qarori (3383-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) (2022 yil 31 avgust);
- “Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 2-son buyrug‘i (3407-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) (2022 yil 28 dekabr).

II. Murojaatlar bilan ishlash yo‘nalishida

Agentlikka **2022 yilda** jami **2234 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan **2219 tasi** ko‘rib chiqilishi ta’minlangan, hozirda **15 ta** murojaat ko‘rib chiqilmoqda.

Shundan, **88 ta** murojaat ijobiy hal etilgan, **817 ta** murojaatga huquqiy maslahat va tushuntirishlar berish orqali qanoatlantirilgan, **2 tasining** ijobiy yechimi yuzasidan Agentlikka tashakkurnoma bildirildi, **63 ta** murojaat anonim deb topilgan, **26 ta** takroriy murojaat ko‘rib chiqilishi belgilangan tartibda tugatilgan, **5 ta** murojaat ma’lumot uchun qabul qilingan, **1220 ta** murojaat taalluqliligi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga yo‘naltirilgan.

Kelib tushgan murojaatlarning **1919 tasi** jismoniy shaxslardan, **315 tasi** yuridik shaxslardan, **1565 tasi** yozma, **306 tasi** elektron, **363 tasi** og‘zaki ko‘rinishda, shundan, **103 tasi** Agentlik rahbariyatining shaxsiy qabulida, **75 tasi** mas’ul xodimlarning qabulida, 185 tasi Call markaz orqali kelib tushgan.

Agentlikka kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyatida sud-huquq sohasidagi muammolar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va turli sohalarda korrupsiyaviy holatlarning yuz berayotganligi to‘g‘risida yozilgan murojaatlardan iboratdir. Jumladan, Agentlikka qo‘yidagi soha va yo‘nalishlar bo‘yicha murojaatlar kelib tushdi:

- sud qarorlaridan noroziliklar **229 ta** (10,2%), shundan:

JIB sud qaroridan 120 ta;

FIB sud qaroridan 59 ta;

Iqtisodiy sud qaroridan 24 ta;

Ma’muriy sud qarorlaridan 20 ta;

Harbiy sud qaroridan 6 ta.

- ta’lim sohasi xodimlarining xatti-harakatlari va sohadagi qonunbuzilish holatlari bo‘yicha **184 ta** (8,0%), shundan;

94 ta Xalq ta’limi sohasida;

48 ta Oliy ta’lim sohasida;

42 ta Maktabgacha ta’lim sohasida.

- davlat xaridlari va tender savdolari jarayonidagi qonunbuzilish holatlari bo‘yicha **160 ta** (7,0%);

- ichki ishlar organlari xodimlarining xatti-harakatlari va qarorlaridan noroziliklar **134 та** (5,8%) va hokazo.

Toshkent shahar bo‘yicha 668 ta;

Toshkent viloyati bo‘yicha 260 ta;

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 200 ta;

Samarqand viloyati bo‘yicha 165 ta;

Namangan viloyati bo‘yicha 132 ta;

Farg‘ona viloyati bo‘yicha 128 ta;

Buxoro viloyati bo‘yicha 100 ta;

Surxondaryo viloyati bo‘yicha 95 ta;

Andijon viloyati bo‘yicha 93 ta;

Navoiy viloyati bo‘yicha 89 ta;

Jizzax viloyati bo‘yicha 83 ta;

Sirdaryo viloyati bo‘yicha 78 ta;

Xorazm viloyati bo‘yicha 68 ta;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 67 ta

Chet el fuqarolaridan 4 ta murojaat kelib tushgan.

Shuningdek, Agentlik vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko‘rsatib o‘tilayotgan korrupsiyaviy holatlar va ularni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil qilish orqali muammolarga yechim topish, mavjud tartib-taomillarni o‘zgartirishni (raqamlashtirish, soddalashtirish, tugatish kabilarni) nazarda tutuvchi hamda qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi yig‘ilishida muhokama qilindi hamda tegishli “Yo‘l xarita” tasdiqlandi. Mazkur “Yo‘l xarita” ijrosi yuzasidan vazirlik va idoralar tomonidan tegishli vazifalar amalga oshirilishi ta’minlandi.

III. Davlat xaridlari sohasida qonun talablariga rioya qilinishi yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganishlar

Agentlik tomonidan korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi sohalar va yo‘nalishlar bo‘yicha muntazam ravishda o‘rganish va monitoring tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, 2022 yilning 1 yanvardan boshlab, barcha davlat xaridlari (eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish) tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkazilishi joriy qilindi;

- davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi (MJtK 1758-modda);

- davlat xaridlari sohasida o‘tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini majburiy tarzda ochiq e’lon qilish yo‘lga qo‘yildi;

- davlat xaridlari doirasida tuziladigan shartnomalarda aks ettirilishi lozim bo‘lgan korrupsiyaga qarshi shartlar ishlab chiqilib, xarid ishtirokchilari o‘rtasida tuziladigan shartnomalarga tadbiq etildi.

O‘tkazilgan monitoring, tahlil va o‘rganishlar natijalari bo‘yicha aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish yuzasidan 129 ta (2021 yil 373 ta) taqdimnomalar kiritildi.

Xususan, davlat xaridlari bo‘yicha 119 ta taqdimnoma bo‘yicha 360,9 mlrd.so‘mlik xato va kamchiliklar va 10 ta boshqa holatlar, jumladan:

- masofaviy monitoring natijasida 68 ta 107,6 mlrd so‘mlik;

- murojaatlar asosida 29 ta 214,1 mlrd.so‘mlik;

- OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan maqolalarni o‘rganish orqali 8 ta 26,1 mlrd so‘mlik;

- joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlar yakuni bilan 9 ta 13,3 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar yuzasidan taqdimnomalar kiritilgan.

Bundan tashqari, budjet mablag‘larining sarflanishi, davlat xaridlarining o‘tkazilishi va davlat dasturlarining bajarilishi, imtiyozli bank kreditlarining maqsadli ishlatilishi, fuqaro va tadbirkorlarning murojaatlari va boshqa holatlar yuzasidan o‘tkazilgan o‘rganishlar va monitoringlarda bir qator qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilganligi aniqlanib, huquqiy baho berishlik uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga 174 ta (2021 yil 110 ta) so‘rovnomalar yuborildi.

Mazkur so‘rovnomalar asosida huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan 30 dan ortiq jinoyat ishlari (2021 yil 49 ta), 70 dan ortiq ma’muriy (2021 yil 24 ta) va 15 dan ortiq intizomiy (2021 yil 10 ta) ishlar qo‘zg‘atilgan.

2022 yilda davlat xaridlari bo‘yicha kiritilgan 119 ta holatdagi qonunbuzilishlarning 67 tasida (2021 yil 73 ta) (63,8 mlrd.so‘m) yoki 56,3 foizida davlat xaridida ishtirok etgan subyektlar o‘zaro affillanganligi yoki komissiya a’zosi bilan ishtirokchi o‘rtasida affillanganligi holatlari aniqlangan.

Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 martdagi “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati to‘g‘risida”gi 103-son Qarorda davlat boshqaruv organlari xodimlari, davlat banki rahbarlari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlangan.

Shuningdek, 2022 yil 8 avgust kuni kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli emasligi haqidagi qoida belgilangan.

Ushbu qonunchilik talablariga hududlardagi davlat xizmatchilari tomonidan rioya etilishi Agentlik tomonidan tizimli ravishda o‘rganib kelinmoqda.

Jumladan, 2022 yil davomida Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida davlat xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelinayotganligi holatlari joyiga chiqqan holda o‘rganildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, ushbu viloyatlarda jami 1 625 nafar davlat xizmatchilari (155 nafari hokim va hokim o‘rinbosarlari, 161 nafari bank boshqaruvchisi va ularning o‘rinbosarlari, 1309 nafari hokim yordamchilari) davlat xizmati bilan birga (rahbar yoki ta’sischi sifatida) tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotganligi aniqlandi.

Mazkur holatlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlariga tegishli taqdimnomalar kiritildi hamda davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlariga chek qo‘yish bo‘yicha choralar ko‘rildi.

VI. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimining joriy qilish yo‘nalishida

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilangan (PQ-5177-son qaror ijrosi doirasida)
- Shunga ko‘ra, 2022 yilning 30 dekabr holatiga 117 ta (2021 yil 91 ta) davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan banklarda 1520 nafar shtat birliklaridan iborat korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘liq yo‘lga qo‘yilishi ta’minlandi.
- Agentlik tomonidan xalqaro standartlar asosida ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi 10 ta idoraviy hujjatlar va 4 ta uslubiy – metodologik qo‘llanmalar ishlab chiqilib, barcha davlat tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatiga tadbiq etildi.
- Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy qilindi (PQ-81-son qaror ijrosi doirasida).
- Ushbu tizim doirasida dastlab eksperiment tariqasida 24 ta davlat tashkilotining faoliyati baholandi.
- Ma’lumot uchun: Baholash natijalariga ko‘ra, 24 ta davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, 3 ta tashkilot faoliyat samaradorligi “yaxshi” – (81-100 ball), 10 ta tashkilot “qoniqarli” – (55-80 ball) va 11 ta tashkilot “qoniqarsiz” – (55 balldan past) toifalarga ajratildi. Masalan, Qurilish, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Bo‘ka va Mirzo Ulug‘bek tumani hokimliklari faoliyati qoniqarsiz baholandi.
- 2022 yil 1 iyuldan boshlab reyting baholash tizimi boshqa davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga tadbiq etila boshlandi.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish doirasida:

- a) “E-Anticor.uz” elektron platformasi ishga tushirilib, reyting baholash to‘liq ushbu platformada amalga oshirildi;
- b) OAVda qaror mazmun-mohiyatini yoritishga qaratilgan 24 ta targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi;
- v) 84 ta davlat tashkilotlarning mas’ul xodimlari uchun reyting baholash yuzasidan seminar-trening (o‘qitish) o‘tkazildi;
- g) Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi tasdiqlandi;
- ye) Baholash jarayonida foydalanish uchun reyting baholash uslubiyoti ishlab chiqildi.
- Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha «E-Antikorrupsiya» loyihasi amalga oshirilmoqda (PQ-240-son qaror ijrosi doirasida).
- 2022 yil 1 sentabrdan boshlab, «E-Antikorrupsiya» loyihasini amalga oshirish doirasida:
- a) 63 ta davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘zlarining faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar majburiy ravishda baholanmoqda;
- b) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha ushbu xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida «Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri» yuritiladi (2023 yil mart oyidan).
- v) «Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri» Agentlik internet tarmog‘ida ochiq e’lon qilib borilishi ta’minlanadi.
- Davlat tashkilotlari tomonidan ularga yuklatilgan har bir funksiyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash Agentlik va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti”ga muvofiq amalga oshirilmoqda.
- Hozirda, davlat organlari va tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar natijasida 2022 yil dekabr holatiga ko‘ra, 20 ta davlat tashkiloti va 1 ta xususiy bank “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatiga ega bo‘ldi.
- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan vazirlik va idoralarda 90 dan ortiq o‘quv seminarlari, treninglar va davra suhbatlari tashkil etildi

V. Kapital qurilish, oliy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihalarining amalga oshirilishi yo‘nalishida

1.Kapital qurilish sohasida:

- 2022 yil davomida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi orqali tashkil etilgan 11 714 ta onlayn elektron tender savdolari natijasida obyektlar bo‘yicha jami 1,05 trln. so‘m tejab qolindi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-son qarori qabul qilindi. Qaror talablari asosida barcha turdagi bo‘sh turgan yer uchastkalarini aniqlash va doimiy ravishda Yerelektron.uz ga joylab borish tartibi yo‘lga qo‘yildi;

- Kapital qurilish sohasidagi loyiha-qidiruv tashkilotlari reytingini hisoblash va yuritish tartibi takomillashtirilib, natijada baholash mezonlari 60 ta ko‘rsatkichdan 39 taga kamaytirildi.
- Loyiha-qidiruv tashkilotlari elektron reytingini yuritish tizimi joriy qilindi va bugungi kunda ushbu reyting tizimiga 1 385 ta loyiha tashkilotlari kiritildi;
- Loyiha hujjatlarini ekpertizadan o‘tkazish shaffof elektron tizimga o‘tkazildi, ekspertiza organlariga qog‘oz hujjatlar to‘plamini taqdim etish amaliyotidan to‘liq voz kechildi. Xususan, 2022 yilda jami 26 706 ta obyekt loyihasi ushbu tizim orqali ekspertizadan o‘tkazilib, natijada mazkur obyektlar bo‘yicha 6,7 trln. so‘m mablag‘ tejab qolindi. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida “Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri” yaratilib, barcha obyektlarning loyiha hujjatlari va ekspertiza xulosalari elektron bazasi shakllantirilib borilmoqda;
- Fuqarolarga qurilayotgan obyektlar to‘g‘risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish obyektlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish (foto va videomateriallar ko‘rinishida) va ularni qurilish sohasidagi nazorat bo‘yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi “Ogoh fuqaro” axborot tizimi ishlab chiqildi, master rejalarni ishlab chiqishda jamoatchilik taklif va fikrlarini o‘rganib chiquvchi “Mening mahallam” elektron platformasi ishga tushirildi (mm.mc.uz);
- Qurilish vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikatini qo‘lga kiritdi.

2.Oliy ta’lim sohasida:

- OTM faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, ta’lim jarayonini avtomatlashtirish yo‘nalishida ishlar davom ettirildi, 113 ta OTMda HEMIS axborot tizimining to‘liq versiyasi joriy etildi;
- Kasbiy (ijodiy) imtihonlar jarayonini https://imtihon.edu.uz/ platformasida onlayn translyatsiyasi tashkil etildi;
- Imtihonlar jarayonida korrupsiyaviy yoki jonli efirga uzatish tartibiga rioya etmaslik holatlariga duch kelganda vazirlikning telegramdagi @EduAntiSorruptionBotga yoki 1006 Ishonch telefon raqami orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi;
- Tizimni raqamlashtirish maqsadida 10 dan ziyod kontrakt.edu.uz, prof-kontrakt.edu. uz, magistr.edu.uz, stipendiya.edu.uz, diplom.edu. uz, adabiyot.edu.uz, kasb.edu. uz, unilibraru.uz kabi elektron platformalari ishga tushirildi;
- Talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy holatlar xususida vazirlikka anonim murojaat qilishni ta’minlash maqsadida @antikoredu rasmiy telegram boti faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

3.Sog‘liqni saqlash:

- «Elektron sog‘liqni saqlash» tizimi doirasida 22 ta axborot tizimi ishlab chiqilib, tibbiyot muassasalarida joriy etildi.
- Tibbiyot muassasalari xodimlarning oylik maoshlari 15 foizga oshirildi, yuqori malakali xodimlarga qo‘shimcha ustamalar joriy etildi.
- Tibbiyot muassasalari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv menejment tizimi joriy etilmoqda.

VI. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash yo‘nalishida

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi 786-son qonuni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 2157-modda bilan to‘ldirilib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks 24510-moddasi bilan to‘ldirilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun mansabdor shaxsga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish vakolati berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-son farmoni qabul qilindi.

Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etildi;

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodika tasdiqlandi.

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni axborot foydalanuvchilari uchun qulay tarzda yagona manzilda joylashtirilishi ta’minlandi.

Qonunchilikka kiritilgan tegishli o‘zgartishga muvofiq, bugungi kunda 120 ga yaqin davlat organi rasmiy veb-saytining bosh sahifasida alohida bo‘lim yaratilib, ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar tizimli ravishda e’lon qilinmoqda.

Ma’lumot uchun: 2021 yil yakunlariga ko‘ra 135 ta davlat organi va tashkilotining faqatgina 50 tasining rasmiy veb-saytida ochiq ma’lumotlar uchun alohida sahifa tashkil etilgan edi.

2022 yil davomida Agentlik huzurida tashkil etilgan “Call-markaz” orqali (1253) jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya holati haqidagi 2300 ga yaqin murojaati qabul qilingan. Fuqarolarga belgilangan tartibda huquqiy maslahatlar berilgan yoki holat yuzasidan tezkor o‘rganish o‘tkazish choralari ko‘rilgan.

Ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning belgilangan axborot resurslarida o‘z vaqtida va to‘liq e’lon qilinishi ustidan doimiy monitoring qilib borildi.

Jumladan, 135 ta vazirlik va idoralar tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq e’lon qilish bo‘yicha topshiriqlar ijrosi holati:

Yaxshi — 48 ta davlat organi va tashkiloti (80 foizdan yuqori);

Qoniqarli — 45 ta davlat organi va tashkiloti (60-80 foiz);

Qoniqarsiz — 42 ta davlat organi va tashkiloti (60 foizdan past).

Natijada, bugungi kunda davlat organlari faoliyatiga tegishli jami 950 dan ziyod ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini belgilangan resurslarda joylashtirib, doimiy yangilab borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Agentlik tomonidan ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan talablarning ijro etilishida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik va idoralarga 41 ta ogohlantirish, 38 ta taqdimnoma yuborildi.

Natijada, mas’ullar kelgusida ochiqlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida qat’iy ogohlantirilib, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilishi ta’minlandi.

Shu bilan bir qatorda, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ hamda “O‘zAgroEksportBank” ATB kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlari bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan.

Agentlik tomonidan davlat organlarining sohaga mas’ul xodimlarini o‘qitishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etilib, 300 dan ortiq davlat xizmatchilarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish ta’minlandi.

Davlat organlarining ochiqlikni ta’minlashga mas’ul xodimlarini onlayn o‘qitishga mo‘ljallangan “Ochiq ma’lumotlar” ta’lim platformasi (https://data.anticorruption.uz/) ishlab chiqildi. Bugungi kunda platforma o‘quv moddulari bilan to‘ldirilmoqda.

Agentlik va Farg‘ona viloyati hokimligi tomonidan “Ochiq, shaffof va hisobdor hudud” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

“Yo‘l xaritasi”ga muvofiq, Farg‘ona viloyatida xalq deputatlari viloyat kengashi bilan hamkorlikda ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan jamoatchilik eshituvi o‘tkazilib, Moliya vazirligi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi va Markaziy bankning Farg‘ona viloyati boshqarmasi rahbarlarining ochiqlikni ta’minlash sohasida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotlari eshitildi.

“Yo‘l xaritasi” doirasida viloyatning turli hududlarida hududiy davlat organlarining faoliyati ochiqligi holatidan fuqarolarning qoniqish darajasini o‘rganish maqsadida jamoatchilik fikri so‘rovi o‘tkazildi. Unda jami 1087 nafar respondent ishtirok etdi.

So‘rov natijalari xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashi hamda tegishli idoralarga aniqlangan e’tirozlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish uchun taqdim etildi.

Innovatsion rivojlanish, Turizm va madaniy meros vazirliklari, Davlat soliq qo‘mitasi, Geologiya, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitalari bilan birgalikda “Ochiq, shaffof va hisobdor vazirlik” loyihalari amalga oshirildi.

VII. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida

1. yilda Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlikka oid 3 ta hamkorlik to‘g‘risida Memorandumlar va 2 ta hamkorlik dasturlari imzolandi.

2. Jumladan, Malayziya, Latviya, Xitoy bilan Memorandumlar va Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Tojikiston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati va korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Hamkorlik dasturlari imzolandi.
3. Xalqaro hamkorlar bilan birgalikda 11 ta seminar, 6 ta trening, 3 ta o‘quv kurslari, hamda 2 ta forum, 1 ta davra suhbati va 3 ta muloqot kabi xalqaro tadbirlar tashkil etildi. Ular qatorida:
4. 1. BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda «Yoshlar halolligi kuni»;
5. 2. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda «Korrupsiyaga oid faoliyatda statistik va tahliliy ma’lumotlarni shakllantirishdagi muammo va yechimlar» mavzusidagi xalqaro davra suhbati;
6. 3. «II Toshkent xalqaro aksilkorrupsiya forumi»;
7. Ma’lumot uchun: Forumda AQSH, Koreya, Gonkong, Malayziya, Latviya, Ozarbayjon, davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idora vakillari, shuningdek, xorijiy ekspertlar, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, 100 dan ortiq vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.
8. Tadbirda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, korrupsiyaga qarshi xavflarni baholash va komplayens-nazorat tizimini joriy etish, davlat xizmatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, masalalari muhokama qilindi.
9. 4. «Biznes — korrupsiyaga qarshi» mavzusida muloqot va BMT GJB, YEXHT va BMT TD tashkilotlari hamkorligida «O‘zbekiston biznes hamjamiyatida halollik» II biznes-forumi;
10. 5. BMT Taraqqiyot Dasturi, «Mintaqaviy muloqot» xalqaro nodavlat tashkiloti hamkorligida «Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati instituti vakillarining ishtiroki: muammo va yechimlar» mavzusida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan muloqot tashkil etildi.
11. Bundan tashqari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida ko‘yidagilar amalga oshirildi:
12. BMT TD va Koreyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo‘yicha komissiyasi bilan hamkorlikda davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini baholash bo‘yicha platforma va metodologiya ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi;
13. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha davlat xizmatchilari bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida maxsus platforma va o‘quv kurslari ishlab chiqildi;
14. Yevropa Kengashi ekspertlari ko‘magida davlat organlarida komplayens-nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash masalalari bo‘yicha 2 ta o‘quv dasturlari ishlab chiqildi;
15. BMT TD bilan hamkorlikda fuqarolarga korrupsiyaviy holatlar to‘g‘risida Agentlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri xabar berish imkoniyatini yaratuvchi veb-sayt va mobil ilova ishlab chiqildi;
16. BMT TD bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yangiliklarni yoritish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish hamda xalqaro hamjamiyatga mamlakatimizdagi islohotlarni to‘laqonli yetkazish maqsadida choraklik onlayn Anti-Corruption Digest jurnali ishga tushirildi v.b.

Xalqaro reyting va indekslardagi natijalar

1. “Transparency International” korrupsiyani qabul qilish indeksi (+14 pog‘ona)

Barqaror o‘sishiga erishilgan (2018 yilda 158 o‘rindan 2022 yilda 126 o‘ringacha).

2. “Jahon odil sudlov loyihasi” xalqaro nohukumat tashkilotining huquq ustuvorligi indeksi (+4 pog‘ona).

Korrupsiyaning mavjud emasligi yo‘nalishida 0,47 ball bilan 66 o‘rinni egallagan.

3. “Trace Matrix” poraxo‘rlik matritsasi (+16 pog‘ona).

2021 yilda 59 ball bilan (1 balldan 100 ballgacha baholanadi, 1 ball – eng ijobiy) 147-o‘rindan 2022 yilda 58 ball bilan 131-o‘ringacha ko‘tarilgan.

4. Open Data Inventory” ochiq ma’lumotlar reytingida (+123 pog‘ona).

2020 yil natijalariga ko‘ra 63 ball bilan 45-o‘rinni egallab kelmoqda.

Avstriya, Fransiya va AQShda bo‘lib o‘tgan xalqaro tadbirlarda ishtirok etilib, ularda yuqori darajadagi shaxslarning ishtirokida korrupsiyaga qarshi siyosatni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Jumladan, BMT korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasida mamlakatimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar xalqaro hamjamiyatga yetkazildi.

NNT va Jamoatchilik bilan ishlash yo‘nalishida

Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik quyidagi 3 ta yo‘nalishda amalga oshirildi.

1. NNTlarni bu jarayonga faol jalb etish va ularni rag‘batlantirish.

Agentlik buyurmasiga asosan, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan 2 ta mavzuda 500 mln so‘mlik loyihalar amalga oshirildi. Xususan:

Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi tomonidan Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Jizzax viloyatlarida 150 dan ortiq jurnalist va blogerlar uchun treninglar tashkil etildi.

“Ijtimoiy fikr” markazi bilan hamkorlikda joriy yilning aprel-may oyida respublika bo‘yicha 1100 respondent bilan Korrupsiya va korrupsiyaviy holatlarning jamiyat hayotiga tarqalganlik darajasi kompleks tadqiqot o‘tkazildi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan birgalikda grant va ijtimoiy buyurtmalar e’lon qilinib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan NNTlar bilan hamkorlikda 9 ta loyiha uchun 70 ming AQSH dollari ajratildi.

G‘olib bo‘lgan NNTlarning aksariyati hududlarda (11 ta NNTning 5 tasi Sirdaryo, Farg‘ona, Navoiy, Buxoro viloyatlarida) faoliyatlarini olib borishdi.

Loyihalar natijasida ayollar va yoshlarning korrupsiyaga oid bilimlari oshirildi, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari uchun qo‘llanmalar, Aksilkorrupsiya komikslar to‘plami, oliy ta’lim muassasasida kovorking markazi tayyorlandi.

2. NNTlarni korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarida bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, unga murosasizlik kayfiyatini shakllantiruvchi NNTlar, jurnalistlar, jamoatchilik faollari uchun 3 ta seminar-trening tashkil etildi va unda 120 dan ortiq ishtirokchi qamrab olindi.

Xususan, 15-16-iyul kunlari “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda xotin-qizlarning rolini kuchaytirish va faolligini oshirish” mavzusida 30 dan ortiq NNT, OAV va jamoatchilik faollari ishtirokida trening tashkil etildi.

13 sentabr kuni korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida ijtimoiy buyurtmalarning amalga oshirilishi mavzusida amaliy mashg‘ulot tashkil etildi.

5 dekabr kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati instituti vakillarining ishtiroki: muammo va yechimlar” mavzusida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi.

3. Hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish.

“Yuksalish” va “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda Antikorrupsiya laboratoriyasi loyihasini amalga oshirildi.

“Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etishda va ularning faoliyatida nohalollik xavfi omillari” mavzusida o‘rganishlar tashkil etildi.

7 ta hududdagi tuman maktabgacha ta’lim bo‘limlari, hokimliklar, banklar vakillari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan so‘rovlar o‘tkazildi.Tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari uchun loyiha hujjatlarini tayyorlashda tadbirkorlarning 25 foizi ariza berish tartibini murakkab, 17 foizi shaffof emas, 10 foizi o‘ta byurokratik deb atagan.

So‘rov natijalari asosida qonunchilikni va tizimni takomillashtirish uchun tegishli takliflar ishlab chiqildi

U-Report loyihasi bilan hamkorlikda 11 000 dan ortiq yoshlar ishtirokida so‘rovnoma tashkil etildi.

31 foiz yoshlar korrupsiya holatiga duch kelsa qayerga murojaat qilishni bilmasligini, islohotlar to‘g‘risida fikr bildirganlarning 30 foizi korrupsiyaviy islohotlarni o‘rta darajada samara berayapti, yanada faollashtirish kerak, 18 foiz samarali deb javob berishgan korrupsiyaga asosiy sabab sifatida esa odamlarning ochko‘zligini (24 %), jazoning muqarrar emasligini (15 %) sabab sifatida ko‘rsatishgan.

Milliy va hududiy kengashlar bilan hamkorliksh yo‘nalishida:

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi faoliyati muvofiqlashtirib borildi va Milliy kengashning 2 ta yig‘ilishi tashkil etildi.

O‘tgan yig‘ilishlarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish hamda sohalar va hududlar miqyosida preventiv choralarni kuchaytirish, “Korrupsiyasiz soha” loyihalarini hayotga tatbiq etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan ish rejalari qabul qilinib, o‘larning o‘z vaqtida amalga oshirilishi ta’minlanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi ijrosi hamda Davlat xaridlari va Sog‘liqni saqlash sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasining amalga oshirilishi yuzasidan mas’ul rahbarlarning hisobot (axborot)lari eshitildi;

Aksilkorrupsiya siyosatiga oid islohotlarning joylarda samarali tatbiq etish borasidagi ishlar ahvolini tahlil qilish maqsadida 14 ta hududda Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy Kengashining joylarda sohalardagi korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish, kelib chiqish sabablarini oldini olishga qaratilgan eshituvlar tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari uchun avgust-dekabr oylari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari faolligini oshirish, joylarda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida tizimli ravishda seminar mashg‘ulotlari tashkil etildi.

2 dekabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari uchun hududiy kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, kengash mas’ul kotiblari va boshqa a’zolarining kengashlar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga oid ko‘nikmalarini yuksaltirish, hududiy kengashlar o‘rtasida tajriba almashish, o‘zaro muloqotni yaxshilash va yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni hamkorlikda bartaraf etish maqsadida seminar tashkil etildi.

Aholi va davlat xizmatchilarining bilimini oshirish, shuningdek huquqiy targ‘ibot yo‘nalishida

Davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyat institutlari, OAV vakillari uchun 80 dan ortiq o‘quv kurslari, seminar, treninglar tashkil etilib, unda 15 mingdan ortiq davlat xizmatchilari, ularning rahbarlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida malakasi oshirildi

O‘zbek, rus hamda ingliz tillarida chop etiladigan “Uzbekistan Anti-Corruption Digest” elektron jurnali ta’sis etildi va 2 ta soni tayyorlandi.

“Korrupsiya hech kimni chetlab o‘tmaydi”, “O‘zbekistonda korrupsiyani yengish mumkinmi?”, “Korrupsiyaga imkon bermang” kabi mavzularda 9 ta videorolik tayyorlandi.

Davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan “Vijdon saratoni” hujjatli filmi va “Talvasa” badiiy filmi tayyorlanishida ishtirok etildi.

Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida “Korrupsiyasiz jamiyat” telegram kanali ishga tushirildi.

Vazirlik va idoralarda tashkil etilgan 90 ta seminar, davra suxbati va uchrashuvlarda Agentlik xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma’ruzalar bilan ishtirok etdi.

“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya haftaligi doirasida 18 ta davlat organlari va tashkilotlari “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tomonidan yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusidagi insholar tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Tanlov respublikaning 200 dan ortiq tuman shaharlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8–11 sinflari, litsey va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida tashkil etildi.

Tanlovlarda yakuniy bosqichda g‘olib bo‘lgan jami 84 nafar yoshlar tashkilotlar tomonidan rag‘batlantirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar bilan aholini xabardor qilib borish maqsadida mahalliy va xorijiy OAV, ijtimoiy tarmoqlarda 1 840 dan ziyod materiallar e’lon qilindi.

“Toshkent” telekanali bilan hamkorlikda, “Tafsilot_kun mavzusi” ko‘rsatuvi, “Mening yurtim5” telekanali bilan hamkorlikda “Stop, korrupsiya” nomli teleloyiha efirga uzatildi.

Korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi ekanligini keng targ‘ib qilish maqsadida “Halollik vaksinasi” nomli ko‘rsatuv tayyorlandi.